



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA BOLALAR ADABIYOTINI O‘QITILISHINING DIDAKTIK AHAMIYATI

Jumayev F.A.

*Toshkent iqtisodiyot va pedagogika
instituti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,*

Raximova L.B.

Toshkent iqtisodiyot va pedagogika instituti o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: konseptual, didaktik, metod, janr, xarakter, DTS, obraz, personaj, diolog, xatboshi, kreativ.

Ключевые слова: концептуальный, дидактический, метод, жанр, характер, ДТС, образ, характер, диолог, абзац, креатив.

Key words: conceptual, didactic, method, genre, character, DTS, image, character, diologist, paragraph, creative.

Buyuk mutafakkir, jadid adabiyotining yirik namoyandasi Abdurauf Fitrat shunday yozadi: “Bolalar axloqiy tarbiyani muhitdan oladilar, boshqacha qilib aytganda, bolalar suvga o‘xshaydilar, suv idishning shaklini olganidek, bolalar ham muhitning odob-axloqini qabul qiladilar [Tarbiya. 10-sinf uchun darslik. 2021. N.Ismatova va boshqalar .b-15].

Darhaqiqat, bola kamolotida ta’lim jarayonlarini to‘g‘ri tashkil etish , ta’limda metod va uslublardan o‘rinli foydalanish o‘qitishning konseptual asoslaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Binobarin, ta’lim-o‘ziga xos uzluksizlikni talab etuvchi jarayon. Bu jarayonda bolaning yosh xususiyatlari, tashqi muhit bilan aloqasi, oilaviy munosabatlardagi o‘rnini ham nazardan chetda qoldirmaslik lozim.

Mashhur bolalar adibi Antuan-De-Sent Ekzyuperi, jumladan, shunday yozadi: “Bu dunyoda faqat bir muammo bor-odamlarga hayotdan ma’naviy qoniqish hissini qaytarish kerak. Ma’naviy boyliksiz qalb toshga aylanur... Komillikka yo‘naltirilgan didni tarbiyalamoq kerak [B.To‘xliyev. Adabiyot o‘qitish metodikasi T-2020. b-3].



Aslida ta'lim va tarbiya bir-biri bilan bog'liq tushunchalar bo'lib hisoblanadi. Adabiyot esa, ayniqsa, bolalar adabiyoti bu borada tarbiyaning ilk mezonlarni qamrab oladi.

Aytaylik, boshlang'ich sinflarning DTS asosidagi ish rejalarida didaktik xarakterdagi afsona va rivoyatlar beriladi. Bu singari hajm jihatdan kichik, ammo tarbiyaviy jihatdan juda katta ahamiyat kasb etadigan bu kabi janrlar o'quvchilarda yaxshigina qiziqish uyg'otishi barobarida ularda tarixga oid bilim va ko'nikmalarni ham shakllantirishga yordam beradi. Bunday afsonalardan "To'maris" va "Shiroq" kabi asarlarni olish mumkin. Bu har ikkala afsona ham umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarida o'qitilishiga qaramay, o'quvchilar mazkur asarlarini yuqori sinflarda ham yaxshi eslay olishadi.

Boisi, asarlardagi sujetning qiziqarliligi, ta'sirchanligi, ertak janri singari oson o'qilishida deb o'ylaymiz. Bolalar adabiyotida obrazlar tasvirida ham ijodkorlar o'ta sodda, tushunarli tasvir yo'nalishini tanlaydilar. Personajlar o'rtasidagi diologlar ham qisqa va ta'sirli bo'ladi.

Shuning uchun asarni xatboshilarga bo'lib tahlil qilinganda ham qiyinchilik tug'dirmaydi.

Binobarin, tahlil jarayonida o'qituvchi asosiy rol o'ynaydi.

Ta'lim jarayonida ijodiy fikrlash -yozma nutqni rivojlantirishning bosh omili. Bu haqda Abu Nasr Farobiy shunday deydi: "O'qituvchi aql- farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi va o'quvchilarga aytmoqchi bo'lgan fikrlarini to'la va aniq ifodalay olishini uddalamog'i lozim. O'qituvchining vazifasiga aynan o'xshashlik dono davlat rahbarida mavjud, xolos. Shu sababli o'qituvchi eshitgan va ko'rganlarining barchasini eslab qolishi, aql-farosatga, chiroyli nutqqa ega bo'lishi bilan birga o'z or-nomusini qadrlashi, adolatli bo'lishi lozim" [Namunali o'qish haqida. Abu Nasr Farobiy. 328-329-bet]

Masalan, boshlang'ich ta'limning ilk bosqichlarida, aynan, 3-sinflarda DTS asosidagi ish rejada Zahiriddin Muhammad Bobur hayotiga bag'ishlangan rivoyat beriladi. Rivoyatning nomi "Bobur va kabutar" deb ataladi.

Garchi rivoyat juda qisqa diologlardan tashkil topgan bo'lsa-da, badiiy matn mavzu jihatdan ham, lisoniy jihatdan ham bolalarga tushunarli va ibratli sujetga ega.

Mazkur rivoyat orqali o'quvchilar asardan tarbiyaviy jihatni o'rganish barobarida tarixiy shaxslar haqida ham ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Masalan: Umarshayx Mirzo, Bobur Mirzo haqida.

Shuningdek, ushbu darslikdan yosh ijodkor Go'zal Begimning "Opa-singil daryolar" adabiy ertagi ham o'rin olgan. Bu adabiy ertakda ham ahillik, insonlarga ezgulik ulashish, atrofni bog'-rog'larga aylantirishga bel bog'lagan

